

BOLALARNING MAVSUMIY MAROSIM FOLKLORINI O‘RGANISHDA OXUNJON SAFAROVNING XIZMATLARI

O‘rinova Maftuna No‘mon qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek bolalar marosim folklorining yuzaga kelishi hamda nazariy rivojida Oxunjon Safarovning tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan. Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va bardavom ko‘rinishi marosim folklorida aks etadi. Unda xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, etnik tarixi namoyon bo‘ladi. Shu bois marosim folklori har bir xalqning kelib chiqishi, an‘anaviy madaniyati, taraqqiyot yo‘llarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Marosim, bayram, urf-odat, kalendar, musiqa, so‘z, o‘yin, ritual, magiya, mif.

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение узбекского детского обрядового фольклора и роль Охунджона Сафарова в его теоретическом развитии. Наиболее древняя и устойчивая форма фольклора находит свое отражение в обрядовом фольклоре. Здесь показан образ жизни, традиции и этническая история народа. Поэтому обрядовый фольклор имеет важное значение в освещении происхождения, традиционной культуры и путей развития каждого народа.

Ключевые слова: Ритуал, праздник, обычай, календарь, музыка, слово, игра, ритуал, магия, миф.

Annotation: This article discusses the emergence of Uzbek children's ritual folklore and the role of Okhunjon Safarov in its theoretical development. The most ancient and lasting form of folklore is reflected in ritual folklore. It shows the people's lifestyle, traditions, and ethnic history. Therefore, ritual folklore is important in illuminating the origin, traditional culture, and ways of development of each nation.

Key words: Ritual, holiday, custom, calendar, music, word, game, ritual, magic.

Marosim harakat va so‘z uyg‘unligidan iborat jarayon sifatida talqin qilinadi. O‘zbek marosim folklori tadqiqotchisi B.Sarimsoqov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, uning uyushtiruvchanlik xususiyati alohida ahamiyatga ega [1, 6]. Bunda marosim ishtirokchilari inson hayotidagi u yoki bu burilish nuqtalarini qayd etish uchun birlashadilar. Bu nuqta tug‘ilish, to‘y-tomosha, mehnat faoliyati yoki o‘lim tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Ayni shu jarayonda kattalarga hamrohlik qilib goh tasodif, goh ishtirokchi sifatida bolalar ham qatnashishadi. Ular kattalarga taqlid qilgan holda o‘z dunyosida ham marosimlar o‘tkaza boshlashadi. Ammo jarayon hamisha kattalarga taqlid doirasida qolib ketmaydi, balki ularning o‘z ijrochiligi vositasida ham namoyon bo‘ladi. Bu haqda folklorshunos M.Alaviyaning fikri ahamiyatli: “El orasida turli-tuman mavsumiy ish-harakat, har xil marosim, urf-odat, bayramlar, oylar va yil fasllari bilan bog‘liq qo‘shiqlar keng tarqalgan: bunday qo‘shiqlar, bir tomondan, mehnat qo‘shiqlari, ikkinchi tomondan, bolalar folklori bilan mahkam bog‘langan. Ba‘zan bular orasidagi farqni belgilash juda qiyindir. Shuning uchun ham ularni birgalikda tekshirish yaxshi natijalar beradi” [2,26]. Demak, bolalarning mavsum va marosim bilan bog‘liq turkum qo‘shiqlari borki, ular kattalar tomonidan yaratilib, ijtimoiy munosabatlar va turmushdagi o‘zgarishlar taqozosiga ko‘ra asrlar davomida bolalar repertuariga o‘tgan yoki bu qo‘shiqlar bolalar ijodkorlik salohiyatiga ta‘sir ko‘rsatib, shu tipdagi qo‘shiqlarning yangi-yangi namunalarini bunyodga kelgan.

Bolalar folklori tadqiqotchisi O.Safarov fikricha, kattalar va bolalarning o‘ziga xos ijodiy hamkorligi yuzaga kelgan, binobarin, bolalar repertuaridagi mavsum va marosim qo‘shiqlariga kattalar va bolalarning hamjihat ijodkorliklari mahsullari sifatida qarash zarur; “Boychechak”, “Oppoqjon”, “Binafsha”, “Chittigul”, “Chuchvara qaynaydur-a” va boshqa yana talay qo‘shiqlar

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ana shunday ijodiy hamkorlik natijasida o‘ziga xos transformatsiya jarayonini kechdi va bolalar ma’naviy olamiga xos fazilatlar bilan sayqallandi[4, 48].

Shu o‘rinda bolalar marosim folklori tushunchasiga oydinlik kiritish o‘rinli. Marosim o‘zining kechish tarzi, xatti-harakatlari va verbal qismini bolalar folklorida to‘liq saqlab qolmaydi, aksincha, boshqa janr ko‘rinishida evriladi. Bolalarning kattalar marosimiga taqlidi asosida marosim-qo‘shiq va o‘yin-qo‘shiqlar yuzaga kelishi mumkin. Aytaylik, bolalar mavsumiy marosimiga daxldor ramazon qo‘shiqlari bir paytlar kattalar repertuarida bo‘lgan marosimning verbal qismi ko‘chishi natijasida paydo bo‘lgan. Yoki “O‘g‘olq”, “Asha bolam” kabi o‘yin-qo‘shiqlar kattalarning motam marosimidagi sadr tushish rituali asosida shakllangan. Xulosa qilish mumkinki, marosimlar bolalar folklorining ayrim janrlari genezisiga ta’sir o‘tkazar ekan, bu janrlarda o‘zining asl mohiyatini saqlab qolmaydi. Bolalar marosimi folklori deganda esa tadqiqotchi N.Qurbonova to‘g‘ri talqin qilganidek, aytim-olqish hamda beshik to‘ylarini nazarda tutish to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu o‘rinda kattalarning ishtiroki va roli asosiy o‘rinda turadi. Bolalarning mavsumiy marosim folklori tushunchasi esa turli marosimlar natijasida yuzaga kelgan, yil fasllari bilan daxldor qo‘shiq va o‘yin-qo‘shiqlarni ifoda etadi.

E’tiborli jihati shundaki, O.Safarov birinchi marta bolalarning taqvim bilan bog‘liq qo‘shiqlarini alohida turkum sifatida o‘rgandi. Bolalarning yil mavsumlari, tabiat hodisalari, turli xarakterdagi munosabatlarini tasvirlovchi muayyan turkum va janrlarga birlashgan asarlarni semantik-struktural, g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qildi. Bunday asarlarda bolalarning o‘ziga xos maishiy turmushi butun bo‘y basti bilan o‘z ifodasini topganligini asosladi. Shuningdek, olim bu silsilaga yalinchoq va hukmlagich janrlarini ham kiritdi.

O‘zbek folklorshunosligida taqvim bilan bog‘liq janrlar bir necha guruhda tasniflangan. Yetuk folklorshunos olim M.Jo‘rayev xalq taqvimining tarixiy asoslari haqida fikr yuritir ekan, ilgari ota-bobolarimiz vaqt hisobini yuritishda foydalangan shamsiy, qamariy, dolg‘a hisobi, to‘qush hisobi kabi 12 turini keltiradi. U taqvim bilan bog‘liq e’tiqodiy inonchlar, xalq qarashlari va tasavvurlarini o‘zida mujassamlashtirgan marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar, aytim va alomatlar tizimi “mavsumiy marosimlar folklori”ni tashkil etishini qayd qiladi. Shuningdek, mavsumiy marosim folkloriga oid quyidagi tasnifni ma’qullaydi: 1. Qamariy yil hisobi bilan bog‘liq janrlar. 2. Yil fasllari bilan bog‘liq marosim folklori janrlari. 3. Muchal hisobi bilan bog‘liq marosim folklori.

O‘tgan asrning 80-yillariga qadar bolalar folklorida mavsumiy marosim qo‘shiqlarining alohida tadqiqi amalga oshirilmagan edi. G‘.Jahongirov “Bolalar qo‘shiqlari” bo‘limida fasl va marosim bilan bog‘liq bir necha folklor namunalari tahlil qilgan[4, 36]. O.Safarov esa o‘zbek bolalar taqvimini nisbatan kengroq aspektida o‘rganib, quyidagi tarkibiy qismlarga ajratdi: 1. Bahor taronalari. 2. Yoz va kuz taronalari. 3. Qish taronalari. 4. Yalinchoqlar. 5. Hukmlagichlar.

Bolalar mavsumiy marosim folklorini o‘rganishda ham olimning xizmati e’tirofga loyiq. Aytish mumkinki, bolalar folklorshunosligida taqvim bilan bog‘liq jiddiy mulohazalar “O‘zbek bolalar poetik folklori” monografiyasida keltirilgan. Unda yil fasllari bilan bog‘liq taronalarning ijro o‘rni va poetikasi O.Safarov tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, bolalar mavsumiy marosim folklori doirasida hukmlagich, yalinchoq va ramazon aytimlarining o‘rganilishi birinchi marta olim tomonidan asoslangan. Ko‘rinadiki, O.Safarov ilmiy merosi o‘zbek bolalar folklorshunosligining boyishi va takomillashuviga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 3.

2. Алавия М. Ўзбек халқ маросими қўшиқлари. – Тошкент: ЎзРФА нашриёти, 1959. – Б. 125.
3. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 88.
4. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 102 б.
5. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Фаң, 1998. – 96 б.
6. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –147б.